

“OMMAVIY MADANIYAT” YOXUD PINHONIY TAHDIDLAR

Karimova Saida

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14905112>

Globallashuv jarayoni o'z-o'zidan axborotning globallashuvi bilan ham kechmoqda. Axborot tarqatish vositalarining takomillashib borishi bilan axborot xuruji, axborot tahdidi ham namoyon bo'lmoqda. XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib biron bir hududda gegemonlikni qo'lga kiritish uchun u yerga qo'shin kiritish, qurol-yarog'ga katta mablag' sarflash shart bo'lmay qoldi. Bu vazifani “beozorgina” ko'ringan axborot orqali amalga oshirish imkoniyati yuzaga keldi.

“Ommaviy madaniyat” ko'rinishida zo'r berib targ'ib qilinayotgan va eshik qoqmay kirib kelayotgan hamda milliy ma'naviyatimizga jiddiy xavf tug'dirayotgan hodisa bugun jamoatchilikni katta tashvishga solmoqda.

Internetning paydo bo'lishi axborot sohasida inson uchun juda ko'p qulayliklar yaratdi. Minglab chaqirim masofalar go'yo o'zining ahamiyatini yo'qotdi. Dunyoning xohlagan go'shasiga bir zumda har qanday xoh yozuvli, xoh ovozli, xoh tasvirli bo'lsin axborotni uzatish yoki undan qabul qilish mumkin bo'lib qoldi.

Mutaxassislarning fikricha, hali ilm-fanda “antikultura” (g'ayrimadaniyat) degan ilmiy tushuncha shakllanmaganligi uchun “Pop (ommaviy) madaniyat” tushunchasi, nochorlikdan qo'llanilmoqda. Chunki “ommaviy madaniyat” aslida ma'naviyatsizlik va axloqsizlik sinonimidir. Faylasuf olim S.Otamurodov ushbu hodisani “ommaviy ma'naviyat” deb ataydi. “Ommaviy ma'naviyat” o'zida mavjud bo'lgan umuminsoniy qadriyatlarni yuzaga chiqarib, oxir-oqibatda moddiy yuksaklikka erishgan va mazmunan qashshoqlashib qolgan “G'arbning halokati”ning o'zini bu yorug' olamda saqlab qolishga qaratilgan xatti-harakatlarning natijasi o'laroq shakllanayotgan ma'naviyatdir. Bu ma'naviyat-yuksak taraqqiyotga erishgan millatlar tomonidan hali yuksak taraqqiyotga erishishga ulgurmagan millatlarni o'zligidan, urf-odat, an'ana, qadriyatlaridan marhum qilishga va ularni o'z xohish-irodasiga hech ikkilanmasidan itoat qiluvchi manqurtga aylantirishga qaratilgan ma'naviyatdir¹.

“Ommaviy madaniyat” tarkibidagi kishilarning dasturiy qarashi shundayki, ular insonni emas, aksincha, narsalar va buyumlarni e'zozlashadi. Ma'naviy dunyoni emas, maishiy-iste'molchilik his-tuyg'ularini qadrlaydilar va ularni keng ommalashtirishga intiladilar. Ularning ma'naviy pozitsiyasi – ma'naviyatni o'ldirish va “narsalarga qullik” ni rag'batlantirishdir. Amerikaning taniqli adibi R.Bredberi aytganidek, “ommaviy madaniyat” maktabidan o'tgan avlod uchun hayotning ma'nosi – avtomobil, televizor, kompyuter va shunga o'xshash texnik vositalargagina ega bo'lishdir. Inson moddiylikka muhabbat qo'ygani sayin uning qalbida ma'naviy tutumlarga joy kamayib, ma'naviy qashshoqlikka qarab yetaklaydi.

G'arbda “populyar” yoki “pop-kultura” ya'ni “ommaviy madaniyat” deb atashadi. Garchi “madaniyat” atalsada, aslida, tub mazmun-ma'nosi, maqsad-muddaosiga ko'ra “ommaviy madaniyat” chinakam madaniyatning kushandasidir. Gegemonlikka intilgan davlatlarning mafkurachilari madaniy gegemonlikka erishish uchun xalqning ma'naviy-madaniy tayanchlarini kuchsizlantirish, ularga butunlay teskari bo'lgan g'oyaviy ta'sirlar orqali erishish mumkinligini ta'kidlashgan. Har bir xalqning o'zligini belgilovchi, milliy qiyofa ruh beruvchi ma'naviy

¹ Otamurodov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. T.: O'zbekiston, 2013. 100-101-b.

madaniyati mavjud. Bu negiz ming yillar davomida shakllangan turmush tarzi, urf-odat va qadriyatlari, hayotiy tutumlarini qamrab oladi.

Geyosiyosiy kurashda gegemonlikni maqsad qilgan kuchlar ana shu milliy o'zlikka tajovuz qiladi. Buning uchun tanklar, qiruvchi samolyotlar, bombalar talab etilmaydi, balki targ'ibot vositalariga ya'ni kitoblar, risolalar, filmlar, qo'shiqlar va boshqalarga milliy o'zlikni yemiradigan, uning kushandasi bo'lgan g'oyalar singdirilgan mahsulotlarni yuborishning o'zi kifoya. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov " bugun mafkura poligonlari yadro poligonlaridan kuchli" deganda aynan mana shuni nazarda tutgan edi.

Haqiqatdan ham bugun har bir xonadonning to'rini egallab turgan televizor eng xafvli, kuchli poligon vazifasini o'tamoqda. Bundan 30-40 yil avval telvidenie uncha taraqqiy etmagan, ko'rsatuvlar namoyish davri cheklangan har bir ko'rsatuv senzura nazaridan o'tkazib taqdim etilgan davr bilan bugungi kunni aslo taqqoslab bo'lmaydi. Bugun televizordan sutkada 24 soat davomida yuzlab telekanallar orqali ko'rsatuv tomosha qilish mumkin. Chunki sun'iy yo'ldosh orqali dunyoning xohlagan joyidan uzatilayotgan har qanday yaxshi va yomon, oq va qorani ko'rsatadigan ekranning naqadar kuchli sinov maydoni ekanligini tasavvur etish mumkin.

Tarixiy xotirani susaytirish, jamiyatdagi birdamlikka putur yetkazish, an'anaviy qadriyatlarni yemirish, xalqni ma'naviy ildizlaridan mahrum etish, sog'lom aqlni "o'chirish", axloqsizlikni targ'ib qilish, insonning eng tuban mayllari, hayvoniy xirlari, nafsini qo'zg'ash kabi usullar bilan milliy negizni tashkil etgan o'zlikni kuchsizlantirishga harakat qilinmoqda. Ko'rinib turibdiki, buning muddaosida insonning mustaqil fikrdan mahrum qilish, uni o'zligini unutgan kimsaga, manqurtga aylantirish maqsadi yotibdi. Yangi ko'rinishdagi bunday mustamlakachilikning fojiaiy oqibati ham shunda.

E'tibor bering, yuqoridagi tahdidning maqsadlaridan biri birdamlikka putur yetkazish hisoblanadi. Tasavvur qiling urf-odatlarimizda agar ilgari biron oilaga uzoqdan mehmon kelsa qo'ni-qo'shnilar mehmonning oldiga taklif qilingan. Mahallada birdamlik, qo'ni-qo'shnichilik an'analari chuqur ildiz otgan. Bugun esa mahallaga kim kelayapti yo ketayapti bundan hech kimning xabari yo'q. Hamma o'z qobig'iga o'zi o'ralashib, asosiy vaqtini televizor qarshisida "ommaviy madaniyat" bilan yo'g'rilgan filmlar, seriallarga ajratilayotgani ana shu birdamlikka putur yetkazishning eng oson usuli deyish mumkin.

Bugun na ma'no na mazmun bo'lgan, insoniy hislardan ko'ra, ko'proq past instiktlarni qo'zg'ovchi yoki shunday kadrlar ataylab joylashtirilgan, g'oyaviy bo'sh, hatto zarali film, qo'shiq, klip kabi "ommaviy madaniyat" namunalariga hayotimizda ko'p duch kelamiz. "Ayniqsa, yoshlarni ohangraboday o'ziga tortayotgan, "ommaviy madaniyat" qulligidan qutilishning yo'li bormi? Tabiiyki "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik ortirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi.

"Ommaviy madaniyat" Yer yuzida qadriyatlarning bir xillashuvi, milliy o'ziga xoslikning yo'qolib borishiga olib kelmoqda. Har bir xalq o'zining qadriyatlari, urf-odatlari, milliy ma'naviy boyliklari bilan tirik. "Ommaviy madaniyat" ta'siridagi inson "g'arb" andozalarining quliga, o'zgalar urfining taqlidchisiga aylanadi. Qalbi o'zgalar madaniyatiga talpingan odam hech qachon vatanparvar bo'lmaydi. Har qanday sharoitda xiyonat, xoinlik yo'liga kirish, o'zgalar manfaatiga shay askarga aylanishi mumkin. "Ommaviy madaniyat"ning ildizi, boy merosga suyanadigan tayanchi yo'q. Uning ta'sirida o'z milliy zaminidan, o'zligidan yiroq manqurt shakllanadi. O'z urf-

odat va ma'naviy tutumlaridan osongina voz kechadigan, ularni eskilik sarqiti, zamonga mos emas degan g'oya bilan yashaydigan olomon yaratiladi.

References:

1. Каримова, С. (2021). Mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning tarkibiy funksional tahlili. *Общество и инновации*, 2(11/S), 273-279.
2. Karimova, S. (2022). MAFKURAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MEROSIMIZNING ORNI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(1), 485-488.
3. Mustafayevich, B. A. (2021). Use of Fiction in the Formation of the Worldview of Youth. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 2(5), 37-40.
4. Bayeshanov, A. (2022). BADIY ADABIYOT YOSHLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRUVCHI OMIL SIFATIDA. *TA'LIM VA INNOVATION TADQIQOTLAR*, 97-99.